O'smirlar rivojlanishi bir qancha guruhlariga bo'linadi: vaqtinchalik, bosqichma-bosqich o'tish. Bizning mamlakatimiz va chet el mamlakatida yosh avlodni natijalari tayyorlash jarayoni, mashg'ulotlar bo'y o'sishiga va jismoniy sifatlarni oshirishga qaratilgan bo'ladi. Sportga tanlash muammosi uzoq davom etadigan ish. *Shuning uchun V.P. **Filin tanlash jarayonini sport maktablari uchun uch bosqichga bo'ladi.***

1-bosqich vazifasi. Sportga tayyorlashning boshlang'ich tashkillashtirish va kuzatish, o'smirlarning iqtidorlilarini mashg'ulot jarayonida iqtidorli o'smirlar faoliyati kengayib boradi. Ko'rsatkichlarga qaraganda ko'pgina sport turlari

mashg'ulotlar davomida bolalarni aniq maqsadga qaratilgan bo'y, tana og'irligi va tana o'lchamlari.

Tanlashning asosiy xususiyati va murabbiy kuzatuvi jismoniy tarbiya o'qituvchisining jismoniy tarbiya darslarida kuzatiladi. Shaharlararo, maktablararo shu musobaqalarda jismoniy me'yorlarni topshirish jarayonida sportchilarni tanlash, o'quvchilarni jismoniy tarbiya darslari orqali bolalar va o'smirlar maktabiga tayyorlash. Saralashning maxsus vositasi yosh o'quvchilarni sportning qaysi turini tanlashiga yordam beradi va shu darslar orqali tashkillashtiriladi.

Sport amaliyoti shuni ma'lum qiladiki, birinchi bosqichda bolaning aniq maxsus imkoniyatlari ko'rinmaydi. Morfologik, bio-mexanik, funktsional va psixologik ruhiy faoliyatlar bolani maxsus yo'nalishda biron bir sport turini tanlashida xizmat qiladi.

Amaliyotning individual biologik rivojlanishida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchining belgilovchi shu vazifalar bilan boshlashadi. Shuning uchun tanlashning birinchi bosqichida tashkillashtirishni qo'llash kerak. Yuqori natijalarga erishish uchun faqat bolalarning imkoniyatlarinigina emas balki ularning qay darajada sportga tayyor ekanligini va bo'yining o'lchamiga ham bog'liq bo'ladi.

Tanlash sistemasi nazorat sinashlarini hisobi bo'yicha o'tkazish kerak. chunki bola nimani hozirda bajara olishini emas, balki kelajakda qaysi harakat vazifalarini bajara olishini o'zining aqli bilan harakatlarini moslashtira olishini o'ylashi kerak.

Bir martalik nazorat sinashi shuni ko'rsatadiki, bunda faqat nomzodi haqida gapiriladi. Lekin, perspektiv imkoniyatlar haqida juda kam gapirilmoqda. Sportchining jismoniy sifatlarini rivojlanishi va bu sifatlarni maxsus mashg'ulot jarayonida o'stirish (rivojlantirish) bolalarning jismoniy rivojlanishini baholashda uning bo'yiga, og'irligiga, tana o'lchamlariga, ko'krak qafaslariga, oyoq o'lchamlariga va tovon o'lchamlariga qarab baholanadi. Bundan keyin bolaning harakat imkoniyatlari baholanadi.

2-bosqich vazifasi. Bunda tanlangan qatnashchilarning tanlangan sport turi bo'yicha berilgan vazifalarni qay tariqa bajarilishini ko'rib chiqishdir. Murabbiy o'quvchi bolalarni pedagogik kuzatuv, sport mashg'ulotlari jarayonida nazorat sinov musobaqalari va o'quv mashg'ulot guruhlarini murabbiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holdan o'rganadi. BO`SMga bolalarni nazorat sinovlaridan qanday o'tganligi hisobga olinadi. Bu tanlashda ko'proq iqtidorli bolalar saralab olinadi. Ilmiy harakat kengashida va jismoniy sifatlarni rivojlanishida asosiy manbaa bo'lib o'quv mexanizmi hisoblanadi. O'quv mexanizmida qatnashuvchilardan bir vaqtning o'zida texnik mashqlarni o'rganish talab qilinadi. Ilmiy harakat kengashi va jismoniy sifatlarni rivojlanishi kelajakda ko'p yillik mashg'ulot jarayonini tashkillashtirishga imkon beradi.

Tanlovning uchinchi bosqichi vazifasi (sportda yo'naltirish-ning bosqichi) – sport maktabining har bir o'quvchisini uning indi-vidual sport ixtisoslashtirilishini aniqlash uchun ko'p yil davomi-da sistematik o'rganishdir. Sportchini uzoq vaqt davomida va sinch-kovlik bilan o'rganish uning ixtisoslashtirilishini aniqlashning ishonchliligini oshiradi. Bu bosqichda shug'ullanayotganlarning tay-yorligining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash maqsadida pedagogik kuzatishlar, kontrol sinashlar, tibbiy-biologik va psixologik tadqiqotlar amalga oshiriladi (1-jadval). Bu vaqtda shug'ullanayotgan-ning individual sport orientatsiyasi aniqlanadi. Sport amaliyoti va nazariyasida sportdagi iqtidorlik to'g'risidagi muammo birinchi o'rinda turishi bejiz emas. Lekin hanuzgacha, tanlov samaradorligi maksimal bo'lishi uchun, uni qanday va qaysi ko'rsatkichlar asosida olib borilishi to'g'risidagi masala echimsiz turibdi? Tanlovni olib boradigan mutaxassislarning fikricha, tanlov vaqtida sport bilan shug'ullanishga keyinchalik ma'lum bir sport turi bilan shug'ullanish uchun kerakli fazilatlarga ega bo'lgan bolalarga ko'proq e'tibor beriladi. Keyin olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, jadvallar holiga keltiriladi va keyinchalik tasniflanadi.

Iqtidorlik muammosini tadqiq etish, ayniqsa sport qobiliyatlarini tadqiq etish o`zining boshlang'ich bosqichida turibdi. Bu tabiiy iqtidorni baholashda ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qiladi, yosh sportchining morfologik, funktsional va psixologik xususiyatlarini har tomonlama tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

1.4.2-jadval

Sport maktabiga tanlov tizimi

Tanlov bosqichi	Tanlov bosqichining asosiy vazifalari	Tanlovning asosiy usullari
I	Sport maktabiga bolalar va o`smirlarni tanlashda dastlabki bosqich	1. Pedagogik kuzatishlar 2. Kontrol sinashlar (testlar) 3. Sport turlari bo`yicha ko`rik - qonkurslar 4. Sotsiologik tadqiqotlar 5. Tibbiy ko`riklar
II	Dastlabki tanlangan shug`ullanuvchilarning tanlangan sport turida muvaffaqiyatli ixtisoslashish uchun muvofiqligini chuqur tekshirish	1. Pedagogik kuzatishlar 2. Kontrol sinashlar (testlar) 3. Musobaqalar va kontrol nazoratlar 4. Psixologik tadqiqotlar 5. Tibbiy-biologik ko`riklar
III	Sport maktabining har bir o`quvchisini uning individual sport ixtisoslashtirilishini aniqlash maqsadida sistematik ko`p yil davomida o`rganish	1. Pedagogik kuzatishlar 2. Kontrol sinashlar (testlar) 3. Musobaqalar va kontrol nazoratlar 4. Psixologik tadqiqotlar 5. Tibbiy-biologik ko`riklar

Sportdagi tanlov - tanlangan sport faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi kerak bo`lgan insonning, harakat va psixologik funktsiyasini tavsiflaydigan omillarni hisobga olgan holda, amalga oshiriladi. Sportchi aniq bir harakat faoliyatida o`z fazilatlarini muvaffaqiyatli namoyon etishi uchun bularning barchasiga ega bo`lishi

kerak. Faqat bunday holda ularning keyingi rivojlanish jarayonida sport ustasi darajasigacha etishiga umid qilish mumkin.

Sport tanlovi ko`p yillik sport tayyorgarchiligining bosqichlari bilan uzluksiz bog`liq bo`lib, bolalarni maktab yoshidan sport bilan shug`ullanishga jalb qilishdan boshlanib mamlakat terma jamoalarini tuzish bilan tugaydi.

Yosh sportchilarning ko`p yillik mashg`ulotlari, har tomonlama tayyorgarligi kelgusida natijalarining halqaro sinf darajasiga etishini ta`minlaydi. Ko`p yillik shug`ullanish jarayonini to`g`ri tuzish uchun sportchini ixtisoslashtirishni boshlash uchun va tanlangan sport turida navbatdagi razryad me`yorlarini bajarish uchun optimal yoshini aniqlash katta ahamiyatga ega.

So`ngi yillar tadqiqotlari shuni ko`rsatadiki, tanlovda sport natijalariga ta`sir qiluvchi quyidagi omillarni hisobga olish shart:

- sportchining energetik imkoniyatlari (ularning aerob va anaerob unumdorligi);
- tezlilik-kuchlilik va koordinal fazilatlari;
- irsiy qobiliyatlari;
- morfofunktsional xususiyatlari.

Yuqorida keltirilgan omillardan faqat irsiy (genetik shartli) qobiliyatlari mashg`ulot jarayonida tashkiliy ta`sirga bo`ysunmaydi. Shu paytning o`zida sportning har hil turlarida natijalarni belgilab beradigan va sportchilarni tanlashda qayd qilinadigan qator spetsifik omillar murabbiyning faol nazoratida va ijodiy faoliyatining ta`sirida turadi.

Yosh sportchilarni terma jamoalariga tanlashda, sportchining asosiy musobaqalarga bevosita tayyorlanish davrida, uning tayyorlik holatini aniqlash juda muhim hisoblanadi. Bu zaruriyat, rahbar va jamoa murabbiyining musobaqadan oldingi bosqichning sport mashg`ulotlariga nafaqat tuzatishlar kiritish bilan bog`liq, balki jamoalarni to`plashda hatolarni oldini olish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun sportning har hil turlarida test sinovlari

qo`llaniladi. Ular yordamida murabbiylar aniq musobaqalarda ishtirok etish uchun nomzodlarning operativ ishchanlik darajasini baholaydi.

II BOB. TADQIQOTNING USULLARI VA TASHKIL ETILISHI

2.1. Tadqiqotning usullari

1. Ilmiy adabiyot manbalarini tahlil etish va ilmiy-usuliy tajribalarini umumlashtirish:

a) ilmiy-usuliy adabiyotlar tahlili;

2. O`quvchilarni jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash.

3. Pedagogik tajriba o`tkazish

a) Tajriba boshida bolalarni har tomonlama baholash;

b) pedagogik kuzatuvlar tabiiy usulda aniqlanadi.

4. Olingan ma'lumotlarni matematik usulda tahlil qilish.

2.2. Ilmiy adabiyotlar manbalarini tahlil qilish va amaliy tajribalarni umumlashtirish

O`quvchilarni engil atletika tugragiga tashkil etish va o`tkazishda engil atletika sport seksiyasi mashg`ulotlarida murabiiylar ish tajribalar o`rganildi hamda shu sohadagi adabiyotlar tahlil qilib umumlashtirildi.

Engil atletika mashg`ulotlarini o`tkazishni rejalashtirish va nazorat qilish hujjatlarining tahlili jarayonida 11-12 yoshli bolalar Engil atletika tugragini tashkil etish va o`tkazishda zamonaviy usullarni qo`llash orqali ularni samaradorligi aniqlandi.

2.3. Pedagogik kuzatish va nazorat testlari

O`quvchilarining engil atletika tugragini tashkil qilish va o`tkazishda zamonaviy usullardan foydalanishi ularning jinsiga, yoshiga qarab, jismoniy tayyorgarligi hisobga olgan holda aniqlandi.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun **Buxoro shahridagi 27 - sonli umumta'lim maktabida pedagogik tajriba ishlari** olib borildi.

Bunda engil atletika tugaragini tashkil etishda darsdan tashqari, ochiq havodagi mashg'ulotlar, umumiy jismoniy tayyorgarlik bo'yicha mashq jarayonida o'quvchilarning harakat faolligini oshirishga, shikastlanishning oldini olishga qaratilgan tarzda o'tkazildi.

2.4. O'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash

11-12 yoshli bolalarning jismoniy tayyorgarligi darajasi berilgan maxsus testlar orqali aniqlandi. Bularga quyidagilar kiradi:

- a) 30m.ga yuqori startdan yugurish.
- b) 3x10 m ga mokisimon yugurish;
- v) arg'imchoqda sakrash (30 son.) ;
- g) turgan joydan uzunlikka sakrash;
- d) 150 gr. li tennis koptogini 8 m masofadan 5 imkoniyatdan nishonga urish;
- e) 150 gr.li tennis koptogini uzoqqa uloqtirish(m.)

Yuqorida keltirilgan maxsus testlar o'quvchilarning milliy xalq harakatli o'yinlarini o'rganish jarayonidan keyin o'tkaziladi.

2.4.1-jadval

11-12 yoshli o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini aniqlash testlari

No	Testlarning nomi	Bajarilish uslubi
1	2	3
1.	30m.ga yuqori startdan yugurish	Bu test maxsus ajratilgan yugurish yo'lagidan o'tkaziladigan mashg'ulot. Test sinovidan oldin umumiy rivojlantiruvchi tayyorlov mashg'ulot mashqlari o'tkaziladi, so'ng kuzatiluvchi bola 2-3 marta yugurishni bajaradi va eng yaxshi

		ko`rsatilgan natija olinadi, dam olish oralig'i 5 daqiqa. Test natijalari sekundomer bilan o`lchanadi.
2.	3 x 10 metrga mokisimon yugurish (soniya)	Test maktab maydonchasida o`tkaziladi. Umumiy rivojlantiruvchi mashqlardan so`ng kuzatiluvchi bola uni yuqori startdan 2-3 urinishda bajaradi. Ko`rsatkich sekundomer yordamida olinadi. Bu testni qabul qilishda 10 metr oraliqda ikkita parallel chiziq chiziladi. Mokisimon yugurish uchun qarama- qarshi chiziqda bir xildagi 3ta buyum kerak bo`ladi(kubiklar, bulavalar v.h.). Sinaluvchi hushtak chalish yoki «Boshla!» buyrug'i bilan qatnashuvchilar chiziqlardan yuguradi, bitta buyumni olib (har bir bolaga ikkitadan buyum qo`yiladi) orqasiga o`giriladi va o`z yo`lagida orqaga qaytib yugurib kelib, buyumni chiziqdan tashqariga qo`yadi. Ikkinchi buyumni olish uchun yana oldinga yugurib kelib, qolgan ikkinchi buyumni olib orqaga qaytadi va birinchi buyumning yoniga qo`yadi. Buyumni otish va tashlash man etiladi. Ushbu testni o`tkazish qulayligi qatnashuvchi va nazoratchi bir chiziq tomonda turishadi hamda bola buyumni aylanib o`tmaydi.

2.4.1-jadval (davomi)

1	2	3
3.	Arg'imchoqdan sakrash (30 soniya)	Test sport zalida o'tkaziladi. Umumiy rivojlantiruvchi va maxsus yo'naltiril-gan mashqlardan so'ng o'qituvchining «Boshla» yoki hushtak chalishi bilan boshlanadi. Sekundomer yordamida o'lchanadi.
4.	Turgan joydan uzunlikka sakrash	Test sport zalida yoki yugurish yo'lagida o'tkaziladi. Umumiy rivojlantiruvchi va maxsus mashqlardan so'ng kuzatiluvchi bola harakatni ikki-uch urinishda bajaradi. Bolaning gavda qismi tizzadan oyoqlar 10-15 sm ochilgan holda qo'llar orqada sakrashadi. Eng yaxshi natija o'qituvchi tomonidan qayd etib boriladi. Sakrash uzunligi santimetr bilan o'lchanadi.
5.	150 gr.li tennis koptogini 8 m. masofadan 5 imkoniyatdan nishonga urish	Test sport zalida yoki sport maydonida o'tkaziladi. Umumrivojlantiruvchi va maxsus mashqlardan keyin bolaning tennis koptogini 2 metr balandlikda 40 x 40 sm.li taxtaning o'rtasida belgilangan aylanaga nishonga urishi ko'zda tutiladi. Bunda 5 imkoniyatdan nishonga urish hisobga olinadi.
6.	150 gr.li tennis koptogini uzoqqa uloqtirish	Test sport maydonida umumiy rivojlantiruvchi mashqlardan keyin o'tkaziladi. Bolalar yugurib kelib eni 20 metr bo'lgan koridordan tennis koptogini uloqtirishlari shart. Bu mashqni bajarishda o'quvchilar 3 marta imkoniyatdan foydalanadilar, eng yaxshi natijalar qayd etib boriladi.

2.5. Matematik statistika uslublari.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilindi, oldingi olingan natijalar solishtirildi hamda matematik statistika usullari bilan olingan ma'lumotlar ishlab chiqildi.

Tadqiqotlar, tajribalar matematik statistik uslubda ishlab chiqildi. Unda guruhlarining statistik ko'rsatkichlari (o'rtacha kvadrat og'ma, variatsiya koeffitsienti va boshqalar) hisoblab chiqildi.

Shuningdek, statistik farazlar (Styudent t-mezoni bo'yicha) aniqlandi. Barcha hisob-kitob ishlarida «Windows-Excel» kompyuter dasturidan foydalanildi.

2.6. Tadqiqotning tashkil qilinishi

Tadqiqot 2 bosqichda tashkil etildi. Birinchi bosqich muammoning nazariy tahliliga, pedagogik kuzatuvlarga, tadqiqot mavzuiga asos bo'lgan tajriba bo'yicha, tadqiqot usullarini ishlab chiqishga qaratildi. Harakatli o'yinlarga oid ddabiyotlar manbalari o'rganildi va tahlil qilindi.

Ikkinchi bosqich muallifning bevosita **Buxoro shahridagi 27 - sonli 2umumta'lim maktabida tajriba-sinov ishini tashkil etishi, o'tkazishi** bilan bog'liq holda davom etdi.

Yakunlovchi tajriba natijalari tahlil etilib, taqqoslandi, umumlashtirildi, ma'lumotlar matematik va statistik usullar bilan ishlab chiqildi.

III BOB. O`TKAZILGAN TAJRIBA- SINOV NATIJALARI KO`RSATKICHLARI SAMARADORLIGI

3.1. Tajribagacha bo`lgan jismoniy tayyorgarlik ko`rsatkichlari hamda ularning tahlili

*Jismoniy tayyorgarlik ko`rsatkichlari va ularning tahlili.* Buxoro shahar umumta'lim maktablarining 11-12 yoshli boshlang'ich sinf o`quvchilarining jismoniy tayyorgarligi natijalari aniqlandi.

3.1.1. -jadvaldan ko`rinib turibdiki, tezkorlik sifatlarini ko`rsatuvchi 30 metrga yugurish natijalari o`g'il bolalarda 11-12 yoshli o`g'il bolalarda (7,6 soniyadan 7,1 soniyagacha); 11-12 yoshlilarda 7,7-7,1 soniyaga tengdir. Shu bilan birga, yoshdan yoshga o`tishi bilan ko`rsatgan natijalarning vaqti qisqarib borishi aniqlandi.

Jadvaldagi ma'lumotlarga ko`ra 30 metrga yuqori startdan yugurish tezkorlikni rivojlantiruvchi qobiliyat hisoblanadi. 11 yoshli o`g'il bolalar 7,5 soniya, qiz bolalar esa 7,9 soniyani, 12 yoshli o`g'il bolalar 7,1 soniya, qiz bolalar esa 7,3 soniya natijani ko`rsatdi. Ular o`rtasidagi farq 11-12 yoshli o`g'il bolalarda 0,4 soniyani, qizlar esa 0,4 soniyani tashkil etganini kuzatdik. 9-10 o`g'il bolalari 7,5; 7,1 soniyalarga erishdi, shu yoshdagi qizlarning natijalari esa 7,9; 7,3 soniyalarga teng keldi (3.1.1.-jadval).

Nazorat guruhleri 11-12 yoshli o`g'il bolalarda 7,5; 7,0 soniyaga qisqargan bo`lsa, shu yoshdagi 11-12 qiz bolalarning natijalari 7,9; 7,2 soniyaga teng ekanligi kuzatildi.

Chaqqonlik sifatlarini tarbiyalash uchun ya'ni 3x10 metr mokisimon yugurishda milliy harakatli mashqlarni bajarishga bo`lgan imkoniyatlar o`g'il bolalarda 9-10 yoshlilarda 11-12 yoshli o`g'il bolalar o`rtasidagi farq 0,9 soniyaga teng. Qiz bolalarda esa 0,6 soniyaga teng bo`ldi (3.1.1-jadval).

3.1.1.-jadval

11-12 `yoshli o`g`il va qiz bolalarning tajribagacha bo`lgan jismoniy tayyorgarlik ko`rsatkichlari

№	Testlar	Jinsi	n	Tajriba $\bar{x} \pm m$	Nazorat $\bar{x} \pm m$	t	P
11 yoshli							
1.	Yuqori startdan 30 m.ga yugurish .	O` Q	19 13	7,5 ± 0,08 7,9 ± 0,07	7,5± 0,09 7,8 ± 0,08	0,87 0,80	>0.05 >0.05
2.	3x10m.ga mokisi-mon yugurish.	O` Q	19 13	9,8 ± 0,18 10,1 ± 0,13	9,8 ± 0,18 10,1 ± 0,14	0,76 0,82	>0.05 >0.05
3.	Arg'amchidan sak-rash (30 soniyada)	O` Q	19 13	22,4 ± 0,57 26,3 ± 1,55	23,0 ± 0,70 26,0 ± 0,87	1,98 1,26	>0.05 >0.05
4.	Turgan joydan uzun.ka sak.(sm)	O` Q	19 13	124,9 ± 0,37 116,1 ± 0,75	122,2 ± 0,99 117,5 ± 0,88	0,93 1,38	>0.05 >0.05
5.	Nishonga urish (5 imkoniyat 8 m. Masofa)	O` Q	19 13	1,3 ± 0,20 1,2 ± 0,19	1,3 ± 0,21 1,3 ± 0,20	2,42 2,48	<0.05 <0.05
6.	150gr. koptogini uloqtirish (sm .)	O` Q	19 13	21,0 ± 0,25 18,7 ± 0,51	19,0 ± 0,57 16,7 ± 0,37	2,43 0,79	<0,05 >0.05
12 yoshli							
1.	Yuqori startdan 30 m.ga yugurish .	O` Q	19 13	7.1 ± 0,05 7.3 ± 0,09	7,0 ± 0,07 7,2 ± 0,08	1,76 1,49	>0.05 >0.05
2.	3x10m.ga mokisi-mon yugurish.	O` Q	19 13	8,9 ± 0,12 9,5 ± 0,15	8,9 ± 0,06 9,5 ± 0,13	1,76 1,49	>0.0 >0.05
3.	Arg'amchidan sak-rash (30 soniyada)	O` Q	19 13	32,6 ± 0,55 37,8 ± 1,41	30,3 ± 0,86 36,6 ± 0,71	1,89 0,54	>0.05 >0.05
4.	Turgan joydan uzun.ka sak.(sm)	O` Q	19 13	134,9 ± 0,65 129,9 ± 0,90	134,4 ± 0,72 121,0 ± 0,38	1,26 0,35	>0.0 >0.05
5.	Nishonga urish (5 imkoniyat 8 m. Masofa)	O` Q	19 13	1,5 ± 0,17 1,3 ± 0,23	1,6 ± 0,23 1,5 ± 0,26	2,85 1,93	0,05 >0.05
6.	150gr. koptogini uloqtirish (sm .)	O` Q	19 13	25,0 ± 0,46 21,4 ± 0,47	21,7 ± 0,30 17,9 ± 0,36	1,52 1,46	>0,05 >0.05

Kuch-tezligi ko`rsatkichlari (arg'amchidan 30 soniyada sakrash) 11-12 yoshli o`g`il bolalarda 22,6; 31,0 martaga ortganli gini namoyon etdi. Shu yoshdagi qiz bolalarda esa 25,4 ; 36,4 martaga ortib bordi. Kuch -tezligi sifatini rivojlantirishda o`g`il bolalarga nisbatan qiz bolalarning natijalari yuqoriroq ekanligi kuzatildi, buning sababi, qiz bolalarda arg'amchidan sakrash ko`nikmalari juda yoshligidan boshlab shakllangan bo`ladi.

Kuch-tezligi ko'rsatkichlari (turgan joydan uzunlikka sakrash) 11-12 yoshli o'g'il bolalarda 124,6; 135,0 sm.ni tashkil qilgan bo'lsa, shu yoshdagi qiz bolalarda 118,3; 122,0 smni tashkil etdi.

Qolgan test natijalari ham shu tartibda hisobga olindi va ular jadvalda o'z aksini topgan.

Bu ko'rsatkichlar boshlang'ich sinf o'quvchilari orasidagi chaqqonlik va tezkorlik mashqlarini bajarishda o'g'il va qiz bolalarning ko'rsatgan natijalari bir-biridan unchalik katta farq qilmasligini isbotlaydi.

O'g'il va qiz bolalarning natijalari pasayib borayotganligidan yoki o'sish darajasining pastligidan dalolat berayapti. Buning sababi jinsini, yoshini hisobga olgan holda jismoniy tarbiyaning milliy vositalari to'g'ri tanlanmaganligi, hozirgi vaqtda sport jihozlari va anjomlari kamligi, milliy harakatli o'yinlar bilan o'quvchilarning kam shug'ullanganligida deb hisoblaymiz. Shuning uchun o'tkazilgan tadqiqotlar O'zbekiston umumta'lim maktablari dasturlariga o'quvchilarning jismoniy sifatlarini o'stiruvchi milliy harakatli o'yinlarni ko'proq kiritish zarurligi haqidagi xulosalarimizni tasdiqlaydi.

Yuqoridagi 3.1.1; 3.1.2 - jadvallardan ko'rinib turibdiki, arg'amchidan sakrash (30 soniya) da 11-12 yoshlilarda esa 10,2 marta, 11-12 yoshlilarda 11,5 marta sakrashdagi farq mavjud. Bunda arg'amchidan sakrashda o'g'il bolalardan ko'ra qiz bolalarning natijalari yaxshi chiqqanligi ko'rinadi, chunki qiz bolalarning arg'amchida ko'proq harakatda bo'lganligi, yoshlikdan o'yinning bu turi bilan ko'p shug'ullanganligi bunga sabab bo'ladi.

Tezkor-kuch sifatlarini ko'rsatuvchi (turgan joydan uzunlikka sakrash test orqali o'lchangan) quyidagicha o'zgargan: 11-12 yoshli o'g'il bolalar o'rtasida 10,0 sm.ga, qiz bolalarda esa 13,8 sm.ga ortgan. Shu bilan birga 11-12 yoshli o'g'il va qiz bolalar umumta'lim maktablari mezonidan pastroq natija ko'rsatganliklariga amin bo'ldik, shu yoshdagi jismoniy tarbiya darslarida jismoniy vositalarning noto'g'ri tanlanganligi, tezkorlik va kuchlilikni oshiruvchi milliy harakatli o'yinlariga kam e'tibor berilganligidan dalolat beradi.

150 gr.li tennis koptogini uloqtirish 11-12 yoshli o`g`il bolalarda 4,0 metrni, shu yoshdagi qiz bolalarda 2,7 sm.ni tashkil etdi.

Jadvallardan ko`rinishicha, 150 gr.li tennis koptogini uloqtirishda qizlardan ko`ra o`g`il bolalarning natijalari ancha farq qiladi, chunki ular qizlarga nisbatan kuch rivojlanishi jihatidan yuqori turadi.

Arg'amchidan sakrash (30 soniya)da olingan natijalar quyidagicha: 11-12 yoshli o`g`il bolalar ko`rsatkichi 9-10 yoshli bolalarning yoshiga muvofiq ravishda 22,4 - 32,6 marta sakragan bo`lsa, qiz bolalarda 26,3, 37,8 marta sakrashga erishilganligini isbotlaydi.

Natijalar 9-10 yoshli qiz bolalar o`rtasidagi tabiiy rivojlanish yuqori, qizlarning arg'imchoqda sakrash ko`nikmalari ham o`g`il bolalarnikidan ancha yuqori ekanligini ko`rsatmoqda.

Jadvallardagi natijalar shuni ko`rsatadiki, 11-12 yoshli o`g`il bolalar bilan 11-12 yoshli qiz bolalar o`rtasida farq borligi aniqlandi. Bu yoshdagi o`g`il va qiz bolalar jismoniy tarbiya mashg`ulotlarida jismoniy vositalarning har doim ham to`g`ri tanlanmaganligi yoki tezkor-kuch mashqlariga kerakli darajada sharoit yaratilmaganligi yoki e`tibor berilmaganligini ko`rsatadi.

Qo`l kuchlarini aniqlashda 150 gr.li tennis koptogini uloqtirish testi bo`yicha quyidagi natijalarga erishildi: ushbu test natijalarining tahlili 9 yoshdan 10 yoshgacha bo`lgan o`g`il bolalarda dastlabki holatga nisbatan 6,9 barovar ko`p, 11-12 yoshlilarda 1,1 kg.ga, shu yoshdagi qizlar esa, 0,7 kg.ga, 0,8 k g.ga teng bo`ldi.

Bu keltirilgan ma'lumotlardan ko`rinadiki, qo`l mushak kuchi 11-12 yoshli bolalarda yildan-yilga ma'lum miqdorda oshib boradi, bunda milliy xalq o`yinlarining ham ta`siri, o`rni borligini alohida ta`kidlamoqchimiz.

5 imkoniyat 8 metr masofada 11-12 yoshli o`g`il va qiz bolalarning nishonga urish imkoniyatlarini tekshirganimizda jadvalda ko`rinib turganidek, bolalarning nishonga urishi 11-12 yoshli o`g`il bolalarda 1,05 dan 1,4 gacha teng bo`lsa, 11-12 yoshli qizlarda 1,07 dan 1,3 gacha teng bo`lganligi ko`rinadi. Bu

ko'rsatkichlar biz kutgan natijalardan ancha past, chunki o'quvchilarning diqqatni oshiruvchi milliy harakatli o'yinlardan foydalanish darajasi etarli emas.

Kuch-tezligini belgilovchi test bo'yicha olingan (30 soniyada arg'amchidan sakrash) natijalar o'g'il bolalarda 11-12 yoshli bolalarda esa 10,2 marta, qizlarda 7-8 yoshda 4,1 marta oshgan, 11-12 yoshlilarda 11,5 marta oshganligini kuzatdik. Natijalar shuni ko'rsatdiki, 11-12 yoshli o'g'il bolalardan qizlarning natijalari yuqori bo'lib chiqdi.

Shuningdek, tajriba boshida ikki oy davomida tajriba va nazorat guruhi o'quvchilari (11-12 yoshli bolalari) jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining borish jarayoni, darslarga qatnashishi, davomati, bolalarning sog'liklarini tekshirish, rejada ko'proq milliy harakatli o'yinlar bilan bolalarning yoshi va jinsiga mos ravishda tanlab shug'ullantirish, mashg'ulotlardan tashqari olib boriladigan jismoniy tarbiyaning milliy vositalari ham aniqlandi.

Ma'lumki, bolalar jismoniy tarbiyasi, jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini usuliy, pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri aniqlash uchun bolalar fiziologiyasi hamda ruhiyatini yaxshi bilish shart, shularga suyangan holda har bir mashg'ulot oldidan ma'lum vazifalar qo'yilishi lozim. Vazifalar soni ikki-uchtadan iborat bo'lib, ularni bir necha guruhlariga bo'lib o'tish, asosiy harakatlar va mashqlar, milliy harakatli o'yinlar tanlanadi.

Tanlangan mashqlar, birinchidan, asosiy harakatlar bilan bog'liq bo'lishi lozim. Ikkinchidan, mashqlar o'quvchilarning yoshiga, tayyorgarlik darajasiga, jinsiga mos bo'lishi ham kerak. Bundan tashqari bu mashqlar bolaga oddiy, tushunarli, tanish va ular bajara oladigan bo'lishi shart. Shundagina bolalarda harakat ko'nikmasi hosil bo'lishi va malaka oshishini kuzatish mumkin.

3.2. Tajribadan keyin bo'lgan jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari

Pedagogik tadqiqot boshida tajriba va nazorat guruhidagi 11-12 yoshli boshlang'ich maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi: yuqori startdan 30 metrga yugurish (soniya), 3x10 metrga mokisimon yugurish (soniya), arg'amchidan sakrash (30 soniyada), 150 gr.li qichik koptogini nishonga urish (5

imkoniyat 8 metr masofa), 150 gr.li tennis koptogini uloqtirish bo'yicha aniqlandi, nazorat natijalari baholandi.

27-sonli umumta'lim maktabining 5-6 sinf o'quvchilari sinov-tajriba maqsadida olinib, turli pedagogik sharoit yaratilib, ularning yoshiga mos milliy harakatli o'yinlardan foydalangan holda ish olib borildi. Bu samarali vositalardan foydalanish orqali jismoniy tarbiya ishlariga, o'quv rejalariga o'zgartirishlar kiritildi. O'zgartirishlar biz tomonimizdan tavsiya etilgan milliy harakatli o'yinlardan foydalanish to'g'risidagi dasturga tayanilgan holda olib borildi.

Tajriba-sinov boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat faolligini oshirish, ularning mustaqilligini tarbiyalash, bilim berish, jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini yaxshilash, takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izlash, ularni amalga oshirish asosida amalga oshirildi.

Tajriba o'tkazilayotgan 5-6 sinflarda jismoniy tarbiya vositalari, milliy harakatli o'yinlar ya'ni jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi dastur talabidagi harakat ko'nikmasi va malakalarini egallashga qaratilgan holda tanlandi (3.2.1-jadval).

Pedagogik tajribaning yo'nalishi va mazmuni quyidagi usuliy holatni aniqlashga qaratildi:

a) materiallarni rejalashtirishda bolalarning dastlabki jismoniy tayyorgarligi hisobga olindi va ularga individual yondashish asosida tashkil qilindi;

b) o'tkazilgan pedagogik tadqiqot natijalariga ko'ra shu narsa ma'lum bo'ldiki, tajriba guruhida qo'llanilgan milliy harakatli o'yinlar majmuasi shu guruhlarda shug'ullangan bolalarning barcha sifat ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra 30 metrga yuqori startdan yugurish tezkorlikni rivojlantiruvchi qobiliyat hisoblanadi. 11 yoshli o'g'il bolalar 6,4 soniya, qiz bolalarda 6,9 soniyani ko'rsatdi. 12 yoshli o'g'il bolalarda 5,7 soniyaga tengligi kuzatildi. Qizlarda 6,4 soniya natijani ko'rsatdi.

Chaqqonlik sifatini rivojlantiruvchi (3 x 10 metr masofada mokisimon yugurish) testida 9 yoshli o'g'il bolalar 8,3 soniya, qiz bolalarda 8,7 soniya

ekanligini ko`rsatdi. 12 yoshli o`g`il bolalarda 7,7 soniya kuzatildi, qiz bolalarda 8,7 soniya natija yaxshilandi

3.2.1-jadval

11-12 yoshli o`quvchilariningg tajribadan keyin bo`lgan jismoniy tayyorgarlik ko`rsatkichlari

№	Testlar	Jinsi	n	Tajriba $\bar{x} \pm m$	Nazorat $\bar{x} \pm m$	t	P
11 yoshli							
1.	Yuqori startdan 30 m.ga yugurish	O`	19	$6,4 \pm 0,07$	$7,1 \pm 0,03$	0,68	>0.05
		Q	13	$6,9 \pm 0,09$	$7,2 \pm 0,06$	0,91	>0.05
2.	3x10m.ga mokisi-mon yugurish.	O`	19	$8,3 \pm 0,11$	$9,2 \pm 0,11$	0,68	>0.05
		Q	13	$8,7 \pm 0,15$	$9,5 \pm 0,14$	0,91	>0.05
3.	Arg'amchidan sak-rash (30 soniyada)	O`	19	$27,2 \pm 0,63$	$25,8 \pm 0,59$	1,22	>0.05
		Q	13	$33,8 \pm 1,46$	$29,2 \pm 0,88$	2,38	<0.05
4.	Turgan joydan uzun.ka sak.(sm)	O`	19	$134,4 \pm 1,48$	$127,0 \pm 0,84$	1,36	>0.05
		Q	13	$129,0 \pm 0,72$	$124,6 \pm 0,97$	0,68	>0.05
5.	Nishonga urish (5 imkoniyat 8 m. masofa)	O`	19	$1,7 \pm 0,21$	$1,6 \pm 0,21$	2,65	>0.05
		Q	13	$1,6 \pm 0,21$	$1,5 \pm 0,21$	3,46	<0.05
6.	150gr. Kichik koptokni uloqtirish (sm .)	O`	19	$23,1 \pm 0,44$	$20,2 \pm 0,35$	1,38	>0.05
		Q	13	$20,7 \pm 0,51$	$17,8 \pm 0,41$	2,62	<0.05
12 yoshli							
1.	Yuqori startdan 30 m.ga yugurish .	O`	19	$5,7 \pm 0,09$	$6,3 \pm 0,05$	1,23	>0.05
		Q	13	$6,4 \pm 0,06$	$6,8 \pm 0,04$	1,02	>0.05
2.	3x10m.ga mokisi-mon yugurish.	O`	19	$7,7 \pm 0,15$	$8,3 \pm 0,06$	1,23	>0.05
		Q	13	$7,9 \pm 0,16$	$9,0 \pm 0,07$	1,02	>0.05
3.	Arg'amchidan sak-rash (30 soniyada)	O`	19	$38,3 \pm 1,46$	$32,6 \pm 0,71$	1,38	>0.05
		Q	13	$45,5 \pm 1,19$	$39,2 \pm 0,84$	1,25	>0.05
4.	Turgan joydan uzun.ka sak.(sm)	O`	19	$143,4 \pm 0,72$	$137,3 \pm 0,77$	2,43	<0.05
		Q	13	$133,5 \pm 1,63$	$126,6 \pm 1,66$	2,04	>0.05
5.	Nishonga urish (5 imkoniyat 8 m. masofa)	O`	19	$1,9 \pm 0,21$	$1,7 \pm 0,23$	3,39	<0.05
		Q	13	$1,8 \pm 0,28$	$1,6 \pm 0,28$	1,58	>0.05
6.	150gr. Kichik koptokni uloqtirish (sm .)	O`	19	$26,7 \pm 0,51$	$22,5 \pm 0,34$	1,79	>0.05
		Q	13	$23,2 \pm 0,49$	$18,8 \pm 0,33$	0,94	>0.05

Kuch-tezligi (30 soniya ichida arg'amchidan sakrash) testida 11 yoshli tajriba guruhi o`g`il bolalari tajriba oxirida 19,2 marta sakrashga erishdilar, dastlab ularning natijalari 15,2 marta sakrashganini ko`rsatgan, ular o`rtasidagi farq 4 martaba ko`p ekanligi kuzatildi. Bu esa ko`rsatkichlar 26 foizga yaxshilanganini ko`rsatadi. Shu yoshdagi qiz bolalar 23,2 marta sakragan, bu ko`rsatkichlar 20

foizga yaxshilanganligini ko'rsatdi. 9 yoshli o'g'il bolalar 22,5 marta sakrashga erishgan. Yil boshidagidan 5 marta ko'p sakragan, bu esa 22 foizni tashkil etdi. Shu yoshdagi qiz bolalar esa 27,4 marta ko'p sakraganligi ko'rindi

Kuch-tezligi (turgan joydan uzunlikka sakrash) testida 9-10 yoshli o'g'il bolalarda 9,6 sm.ni, qiz bolalarda esa 4,4 sm.ni tashkil etganini kuzatdik.

5 imkoniyatdan 8 metr masofada nishonga urish 11-12 yoshli o'g'il va qiz bolalarning imkoniyatlarini tekshirganimizda jadvalda ko'rinib turgani dek, bolalarning nishonga urishi 11-12 yoshli o'g'il bolalarda 1,7, 1,9 ga teng bo'lsa, 11-12 yoshli qizlarda 1,6, 1,8 gacha teng bo'lganligi ko'rinadi. Bu ko'rsatkichlar o'quvchilarning diqqatni oshiruvchi o'zbek xalq milliy harakatli o'yinlaridan foydalanish darajasi etarli ekanligini ko'rsatdi.

150 gr.li kichik koptokni uloqtirish 11-12 yoshli o'g'il bolalarda 3,5 metrni, shu yoshdagi qiz bolalarda 2,5 sm.ni tashkil etdi. Jadvallardan ko'rinishicha, 150 grammlı kichik koptokni uloqtirishda qiz bolalardan ko'ra o'g'il bolalarning natijalari ancha farq qiladi, chunki o'g'il bolalar qiz bolalarga nisbatan kuch rivojlanishi jihatidan yuqori turadi.

11-12 yoshli boshlang'ich sinf o'quvchilarining yuqori startdan 30 m. ga yugurishda ko'rsatgan dastlabki va yakuniy natijalari 9 yoshli nazorat guruhining o'g'il bolalariga qaraganda tajriba guruh o'g'il bolalari o'z natijalarini yilning oxirida kelib 1 soniyaga yaxshilashdi, bu esa 13 foizni tashkil qilib, ishonchli statistik o'sishga erishildi.

Qiz bolalar esa yil boshiga qaraganda $t_{q1,16}$; $R < 0.05$ 1,2 soniyaga o'z natijalarini yaxshiladilar. Bu natija 15 foizni tashkil qildi 3.2.2.-jadval.

**11-12 yoshli o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi bo'yicha ko'rsatgan
dastlabki va yakuniy natijalari**

Yoshi	Jinsi	n	Tajriba guruhi $\bar{x} \pm m$	Nazorat guruhi $\bar{x} \pm m$	t	p
<i>yuqori startdan 30 m. ga yugurish</i>						
11	O'	19	$7,5 \pm 0,08$ $6,4 \pm 0,07$	$7,5 \pm 0,09$ $7,1 \pm 0,06$	0,87 0,80	>0.05 >0.05
	Q	13	$7,9 \pm 0,07$ $6,9 \pm 0,09$	$7,8 \pm 0,08$ $7,2 \pm 0,06$	0,89 1,08	>0.05 >0.05
12	O'	19	$7,1 \pm 0,05$ $5,7 \pm 0,06$	$7,0 \pm 0,07$ $6,3 \pm 0,05$	1,76 1,29	>0.05 >0.05
	Q	13	$7,3 \pm 0,09$ $6,4 \pm 3,18$	$7,2 \pm 0,07$ $6,8 \pm 0,04$	1,49 1,24	>0.05 >0.05
<i>3 x 10 metrqa mokisimon yugurish</i>						
11	O'	19	$9,8 \pm 0,18$ $8,3 \pm 0,11$	$9,8 \pm 0,18$ $9,2 \pm 0,11$	0,76 0,80	>0.05 >0.05
	Q	13	$10,1 \pm 0,13$ $8,7 \pm 0,15$	$10,1 \pm 0,14$ $9,5 \pm 0,14$	0,82 1,08	>0.05 >0.05
12	O'	19	$8,9 \pm 0,12$ $7,7 \pm 0,10$	$8,9 \pm 0,06$ $8,3 \pm 0,06$	1,76 1,29	>0.05 >0.05
	Q	13	$9,5 \pm 0,15$ $7,9 \pm 0,16$	$9,5 \pm 0,06$ $9,0 \pm 0,07$	1,49 1,24	>0.05 >0.05
<i>Arg'amchidan sakrash</i>						
11	O'	19	$22,4 \pm 0,57$ $27,2 \pm 3,47$	$23,0 \pm 0,70$ $25,8 \pm 0,59$	1,98 1,37	>0.05 >0.05
	Q	13	$26,3 \pm 1,55$ $33,8 \pm 1,46$	$26,0 \pm 0,87$ $29,1 \pm 0,88$	1,26 1,52	>0.05 >0.05
12	O'	19	$32,6 \pm 0,55$ $38,3 \pm 1,03$	$30,3 \pm 0,86$ $32,6 \pm 0,71$	1,89 1,38	>0.05 >0.05
	Q	13	$37,8 \pm 1,41$ $45,5 \pm 1,19$	$36,6 \pm 0,71$ $39,2 \pm 0,84$	0,54 1,08	>0.05 >0.05
<i>turgan joydan uzunlikka sakrash</i>						
11	O'	19	$124,9 \pm 0,37$ $134,4 \pm 1,48$	$122,2 \pm 0,99$ $127,0 \pm 0,84$	0,88 1,68	>0.05 >0.05
	Q	13	$116,1 \pm 0,73$ $129,0 \pm 0,72$	$117,5 \pm 0,88$ $124,6 \pm 0,97$	1,38 1,27	>0.05 >0.05
12	O'	19	$134,9 \pm 0,65$ $143,4 \pm 1,25$	$134,4 \pm 0,72$ $137,3 \pm 0,77$	1,26 1,20	>0.05 >0.05
	Q	13	$129,9 \pm 0,90$ $133,5 \pm 1,63$	$121,0 \pm 0,38$ $126,6 \pm 1,66$	0,35 1,02	>0.05 >0.05
<i>150 grammlı tennis koptogi bilan 8 metr masofadan</i>						

<i>5 imkoniyatdan nishonga urish</i>						
11	O`	19	$1,3 \pm 0,20$ $1,7 \pm 0,21$	$1,3 \pm 0,21$ $1,6 \pm 0,21$	2,42 1,49	<0.05 >0.05
	Q	13	$1,2 \pm 0,19$ $1,6 \pm 0,21$	$1,3 \pm 0,20$ $1,5 \pm 0,21$	3,46 1,54	<0.05 >0.05
12	O`	19	$1,5 \pm 0,17$ $1,9 \pm 0,18$	$1,6 \pm 0,23$ $1,7 \pm 0,28$	2,85 1,84	>0.05 >0.05
	Q	13	$1,3 \pm 0,23$ $1,8 \pm 0,28$	$1,5 \pm 0,26$ $1,6 \pm 0,28$	1,93 1,59	>0.05 >0.05
<i>150 grammlı kichiks koptokni uloqtirish</i>						
11	O`	19	$21,0 \pm 0,23$ $23,1 \pm 0,44$	$19,0 \pm 0,57$ $20,2 \pm 0,35$	2,43 0,87	<0.05 >0.05
	Q	13	$18,7 \pm 0,51$ $20,7 \pm 0,51$	$16,7 \pm 0,37$ $17,8 \pm 0,41$	0,79 1,07	>0.05 >0.05
12	O`	19	$25,0 \pm 0,46$ $26,7 \pm 0,37$	$21,7 \pm 0,30$ $22,5 \pm 0,34$	1,52 1,29	>0.05 >0.05
	Q	13	$21,4 \pm 0,47$ $23,2 \pm 0,49$	$17,9 \pm 0,36$ $18,8 \pm 0,33$	1,46 1,49	>0.05 >0.05

3.2.2 -jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, natijalar 11 yoshli tajriba va nazorat guruhları o'rtasida statistik farqli ravishda $t = 0,87$; $t = 0,80$; $R > 0,05$ ga o'sgan. Bu esa tajriba guruh o'g'il bolalarining dastlabki va yakuniy ko'rsatgan natijalari quyidagicha namoyon etdi: 1,1 soniyaga ya'ni 17 % ga qisqarganligini, qiz bolalarda ham 1,1 soniyaga qisqarganligi, ya'ni 14 % ga yaxshilanganligi aniqlandi (1-gistogramma). Shu yoshdagi nazorat guruhi o'g'il bolalarining natijasi 0,8 soniyaga ya'ni 11 % ga yaxshilandi. Qiz bolalar natijasi esa 0,4 soniyani 6 % ni tashkil etdi.

11 yoshli tajriba guruhining o'g'il bolalari natijasi 1,4 soniyaga yaxshilandi. Bu esa 26 foizga, shu yoshdagi qizlar esa 0,9 soniyaga yaxshilandi, ya'ni 14 foizga ko'tarildi. Shu yoshdagi nazorat guruhi o'g'il va qiz bolalarining ko'rsatgan natijalari 0,7 soniya, bu esa 11% ni, qizlarda 0,4 soniya 6 %, tajriba guruhidagi o'g'il va qiz bolalarning statistik farqli ravishda o'sganligini ko'rish mumkin.

Tezkorlikni rivojlantirish va tarbiyalashning asosiy yo'li yangi xilma-xil harakat malaka, ko'nikmalarini shakllantirish demakdir. Bu esa harakat malakalarining zahirasi ortib borishiga sabab bo'ladi, harakat funksional imkoniyatlariga samarali ta'sir ko'rsatadi. Tezkorlikni rivojlantirish uchun

balandlikka turli usul bilan: orqachasiga, oldi, yonlanma, aylanib yugurib sakrash, o'yinlarda turli taktik kombinatsiyalarni qo'llash, mashqlarni bajarishda tez-tez sheriklarini almashtirish, milliy harakatli o'ynlarni erkin, tez-tez o'zlashtirish va qo'llash asosida rivojlantirish mumkin

Yil oxiriga kelib boshlang'ich sinf o'quvchilari chaqqonlik sifatini rivojlantiruvchi 3x10 metrga mokisimon yugurishda tajriba va nazorat guruhlarini o'g'il hamda qiz bolalarining natijalari statistik ishonchli ravishda $t = 1,76$; $t = 1,49$; $R > 0,05$ o'sishi kuzatildi. Nazorat guruhiga qaraganda tajriba guruhi 11 yoshli tajriba guruhi o'g'il bolalarining ko'rsatgan natijalari quyidagicha ko'rinishga ega: 1,1 soniya, bu esa 17% ni tashkil qilgan bo'lsa, qiz bolalar 1,1 soniya qisqartirib, 14 % ga yil oxirida natijalarini yaxshilaganlar. Shu yoshdagi 12 yoshli o'g'il va qiz bolalarning pedagogik tajribadan keyingi natijalarini kuzatadigan bo'lsak, quyidagicha: 1,2 soniya bu 16 foizni, 1,6 soniya 20 foizni ko'rsatib, ko'rsatkich yaxshilanganligi kuzatildi.

